

HINDIY TILIDAGI MEDIAMATNLARNING GENDER XUSUSIYATLARI: “JANSATTA” GAZETASI MISOLIDA

Ismatullayeva Mo‘tabar Xushvaqt qizi

TDSHU Janubiy Osiyo tillari va adabiyoti oliy maktabi o‘qituvchisi

E-mail: mutabarismatullava@gmail.com

ANNOTATSIYA

*Hindistonda axborot vositalari va matbuotning rivojlanishi davlat, jamiyat va madaniyatning ko‘plab jihatlari bilan chambarchas bog‘liqdir. Hindistonda eng mashhur gazetalar, shu jumladan Jansatta (Janata Satta) gazetasining o‘rni alohida. Gazeta nafaqat siyosiy va ijtimoiy masalalarni yoritishi bilan, balki gender masalalariga ham o‘ziga xos yondashuvi bilan tanilgan. Ushbu maqolada Hindistondagi jurnallarda gender masalalarining yoritilishi misolida **Jansatta** gazetasining o‘ziga xos xususiyatlarini tahlil qilishni maqsad qilganmiz. Genderni yoritishda matnlarning qanday xususiyatlari mavjudligini aniqlash, Hindiston matbuotidagi gender tengligi va stereotiplari haqida yoritilgan fikrlarni tahlil qilish, gazetaning o‘zi va uning jurnalistik uslubi bilan bog‘liq masalalarni ko‘rib chiqamiz.*

Kalit so‘zlar: Media, gender, til, Jansatta, stereotip, Hindiston, hindiy tili.

АННОТАЦИЯ

Развитие СМИ и прессы в Индии тесно связано со многими аспектами государства, общества и культуры. Особое место занимают самые популярные газеты Индии, в том числе газета Джансатта (Janata Satta). Газета известна не только своим освещением политических и социальных вопросов, но и своим уникальным подходом к гендерным вопросам. В этой статье на примере освещения гендерных вопросов в индийских журналах мы стремимся проанализировать особенности газеты Джансатта. Мы определим, какие особенности текстов существуют в освещении гендера, проанализируем освещаемые в индийской прессе идеи о гендерном равенстве и стереотипах, а также рассмотрим вопросы, связанные с самой газетой и ее публицистическим стилем.

Ключевые слова: СМИ, гендер, язык, Джансатта, стереотип, Индия, язык хинди.

ABSTRACT

The development of the media and the press in India is closely related to many aspects of the state, society and culture. The most popular newspapers in India, including the Jansatta (Janata Satta) newspaper, have a special place. The newspaper is known not only for its coverage of political and social issues, but also for its unique approach to gender issues. In this article, using the example of

coverage of gender issues in Indian magazines, we aim to analyze the specific features of the Jansatta newspaper. We will determine what features of the texts exist in covering gender, analyze the ideas covered in the Indian press about gender equality and stereotypes, and consider issues related to the newspaper itself and its journalistic style.

Key words: *Media, gender, language, Jansatta, stereotype, India, Hindi language.*

KIRISH

Gender va media o'rtasidagi bog'lanish, ijtimoiy va madaniy sohalarda o'zgarishlarni aks ettiruvchi muhim jihatlardan biridir. Genderning ijtimoiy qurilishlari, ya'ni erkak va ayolga oid ijtimoiy rollar, me'yorlar, stereotiplar va qadriyatlar, media orqali ommalashadi. Media matnlari, shu jumladan gazetalar, jamoat fikrini shakllantirishda va jinslar o'rtasidagi munosabatlarga ta'sir ko'rsatishda katta rol o'ynaydi. Shuning uchun, genderning media matnlaridagi aks-sadolarini tahlil qilish o'zgarishlar va ijtimoiy tendensiyalarni kuzatishda muhimdir.

Hindistonda ayollarni mediamatnlarda tasvirlashda ko'plab omillar mavjud. Ayollarni yoritishda ba'zan ijobiy, ba'zan esa salbiy stereotiplar ishlatiladi. Ayollarning oilaviy roli: Ko'plab Hindiston mediamatnlarida ayollar oilaviy va uy-ro'zg'or faoliyatlariga jalb qilingan shaxslar sifatida ko'rsatiladi. Televidenie dasturlari, reklama va filmlarda ayollarni o'z oila va bolalariga g'amxo'rlik qilayotgan, ular uchun fidoiy bo'lgan personajlar sifatida tasvirlash keng tarqalgan. Bu yondashuv ayollarga nisbatan an'anaviy gender rollarini mustahkamlaydi va ular o'z huquqlarini himoya mediamatnlarida doimiy ravishda yoritishadi. Ayollarni ishchi kuchi sifatida, ishlab chiqarish jarayonlarida ishtirok etadigan, lekin ko'pincha kam maosh oladigan, kam haq to'lanadigan sohalarda ishlashga majbur bo'ladigan shaxslar sifatida ko'rsatish mumkin. Ayniqsa, ayollarning yuqori lavozimlarda ishlashlari yoki biznesni muvaffaqiyatli boshqarishlari haqida gapirganda, bu ko'pincha ijobiy yoritiladi. Lekin, ayollarning yuqorilashi passiv sub'ektlar sifatida ko'riladi. Jansatta — Hindistondagi mashhur, nufuzli va yetakchi gazetalardan biridir. Gazeta 1983-yilda ishga tushirilgan va asosan hindiy tilida chiqadi. Gazeta, ayniqsa, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy masalalar bilan bog'liq tahlil va maqolalar taqdim etadi. Jansatta o'zining tahliliy maqolalari, to'liq va xolis axborot taqdimoti bilan tanilgan. Biroq, gazetaning gender masalalariga qanday yondashuvi ham muhimdir, chunki bu, Hindistondagi ijtimoiy va madaniy vaziyatni aks ettirishning bir usulidir.

Jansatta gazetasida genderning yoritilishi. Jansatta gazetasida gender masalalari odatda siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy kontekstda muhokama qilinadi. Ayol

va erkaklar o'rtasidagi tengsizlik, jamiyatdagi gender stereotiplari, ayollarning ijtimoiy roli, erkaklarning hokimiyatdagi pozitsiyalari kabi masalalar ko'pincha yoritiladi. Gazetadagi maqolalar ko'pincha jinsiy tenglik, ayollarning huquqlari, jamiyatda erkinlik va adolatga erishish yo'lidagi harakatlarni qo'llab-quvvatlaydi.

Gender tengligi va stereotiplar: Jansatta gazetasida jinsiy tenglik masalalari ba'zan nozik va murakkab yondashuvlar bilan ko'rib chiqiladi. Ayrim maqolalarda ayollarning huquqlarini himoya qilish, ta'lim olish, mehnat bozoridagi teng imkoniyatlarni ta'minlash kabi mavzular muhokama qilinadi. Biroq, ayrim maqolalarda erkaklar va ayollar o'rtasidagi farqlar ham alohida ta'kidlanadi, bu esa ayrim holatlarda gender stereotiplarini qo'llab-quvvatlashga olib kelishi mumkin.

Ayollarning jamiyatdagi o'rnini: Ayollarning siyosatdagi roli, mehnat bozorida ishtiroki va jamiyatdagi mavqei ko'plab maqolalarda yoritilgan. Bu matnlarda ayollar ko'pincha mustahkam va kuchli shaxslar sifatida tasvirlanadi, ammo ba'zida jamiyatda mavjud bo'lgan patriarxal tizimga qarshi kurashayotganlarni ko'rsatuvchi maqolalar ham mavjud. Jansatta gazetasida ayollarning siyosatga aralashuvi yoki siyosatdagi ayollar haqidagi maqolalarga doim ham duch kelavermaysiz, 3-4 yil oldin chop etilgan maqolalarda, Jansatta gazetasining rasmiy web-saytiga joylangan videolavhalar orasida esa ba'zi yuqori lavozimdagi shaxslarning ayollarning siyosatdagi o'rnini qoralovchi so'zlari o'rin olgan videolarga ham duch kelishingiz mumkin. 2016-yilda veb-sahifaga "Mudofaa vaziri Qurolli Kuchlar safida ayollarga kvota ajratilishiga qarshi" nomli videolavha yuklangan.

Ayollarning ijtimoiy roli: Hindistonda ayollarning siyosatdagi va ijtimoiy hayotdagi o'rnini ham media orqali taqdim etiladi. Ayollarni siyosatdagi liderlar sifatida ko'rsatish, ularni o'z huquqlarini himoya qilishda faol ishtirok etadigan, o'z so'zini aytishdan qo'rqmaydigan shaxslar sifatida tasvirlashga urinishlar mavjud. Biroq, ayrim hollarda, ayollarni jamiyatdagi passiv, ikkinchi darajali mavjudotlar sifatida tasvirlash usuli davom etmoqda.

Ayollarning mehnat bozoridagi ishtiroki: Ayollarning mehnat bozoridagi o'rnini ham Hindistonda lavozimlarga ko'tarilishi va ularni jamiyatda erkin va mustaqil shaxs sifatida ko'rsatish nisbatan kam uchraydi. Masalan, 2024-yilning 17-iyulida chop etilgan "*Women in India Face a Jobs Crisis. Are Factories the Solution?*" ("Hindistonda ayollar ish o'rnini inqiroziga duch kelmoqda. Zavodlar yechim bo'la oladimi?") sarlavhali maqolada Hindistonning qishloq hududlaridagi ayollar, ayniqsa, turmush o'rtog'idan ayrilgan, boquvchisini yo'qotgan, yosh bolali ayollarning ish topishda qiynalayotgani, muammolarga duch kelayotgani, oliy yoki o'rta ma'lumotga ega bo'lmagani o'z-o'zini va farzandining kelajagini ta'minlay olishida

to'siq bo'layotgani aytib o'tilgan. Ushbu fakt orqali Hindistonda ko'pgina ayol-qizlar uchun ta'lim olish hamon so'roq ostida ekanligiga amin bo'lish mumkin.

Yoki 2024-yil 18-dekabrda nashr etilgan *“Tamil Nadu ayollarning ishlay olishi uchun qanday sharoitlar yaratdi”* (*“How Tamil Nadu has created favourable conditions for women to join the labour force”*) nomli maqolada ayollarning ishlash uchun imkoni 2017-yildagi 17% dan 2022-2023-yillarga kelib 40% ga o'sganligi, bu holat ayollarning ta'lim darajasi va mehnat qilishi uchun sharoitlar yaxshilanib borayotganligidan darak berishi aytib o'tilgan. Shu bilan birga tanganing ikkinchi tomoniga ham e'tibor qaratilgan: *“Biroq, bu o'sishga qaramay, ishchi kuchida gender tengligiga hali erishilgani yo'q. Ish kuchidagi ayollarning umumiy ulushi hanuzgacha global o'rtacha ko'rsatkichdan sezilarli darajada past. Bu nomutanosiblik ayollarni haq to'lanmaydigan parvarish va uy ishlari bilan ortiqcha yuklaydigan, ularning harakatchanligi va mustaqilligini cheklaydigan va shu bilan ularning mehnatga qo'shilish imkoniyatlarini cheklaydigan ustuvor ijtimoiy-madaniy me'yorlar bilan bog'liq. Bundan tashqari, sifatli ish o'rinlari yo'qligi sababli ishlashga tayyor bo'lgan ko'pchilik imkoniyatsiz qolmoqda,”* – deyiladi maqolada.

Ayollarning ta'limdagi o'rni: Hindistonda ayollarning ta'lim olish huquqi va ularning jamiyatdagi o'rni ham keng muhokama qilinadi. Ko'pgina gazetalarda va televidenie dasturlarida ayollarni ta'lim olishda erishgan yutuqlari, ayniqsa, yuqori darajadagi ilmiy ishlar va ijtimoiy faoliyatlar orqali ko'rsatish borasida ijobiy yondoshuv mavjud. Masalan, Jansatta gazetasida 2022-yil 12-oktabrda nashr etilgan *“Xalqaro qiz bolalar kuni: Dehlida ta'lim, ayollar xavfsizligi uchun kampaniya”* nomli maqolada har yili an'anaviy tarzda o'tkaziladigan qizlarning ta'limiga bag'ishlangan namoyish haqida so'z boradi. Maqolaga ilova qilingan suratlarda bir necha yillardan buyon qizlar ta'limiga undashda asosiy shiorga aylangan *“बेटी बचाओ, बेटी पढ़ाओ”* (qizlarni asrang va o'qiting) so'zlari yozilgan yorliqlar taniqli shaxslar hamda modellar tomonidan namoyish etilayotganining guvohi bo'lishimiz mumkin.

Erkaklar va ayollar o'rtasidagi ijtimoiy farqlar: Erkaklar va ayollar o'rtasidagi ijtimoiy farqlar, iqtisodiy imtiyozlar, mehnat bozoridagi imkoniyatlar va ta'limga kirish imkoniyatlari haqida gazeta maqolalarida ko'plab tahlillar mavjud. Bu maqolalar Hindistondagi gender siyosati, hukumatning genderga oid siyosatlari, ayollarning siyosiy va ijtimoiy o'zgarishlardagi roli kabi masalalar bo'yicha fikrlar taqdim etadi.

2024-yilning 23-sentabrida chop etilgan *“So'nggi yigirma yil ichida giyohvand moddalarni iste'mol qiladigan ayollar soni sezilarli darajada oshdi”* (*“In last two decades, marked increase in number of women indulging in substance abuse”*) nomli

maqolada ayollarni ruhiy zo‘riqishga olib kelgan omillarni keltirishga harakat qilingan:

“Merti, shuningdek, masalaning ijtimoiy jihatlari, tengsiz jamiyatda ayollar qanday qilib qoralangani haqida ham uzoq gapirdi. Ko‘pgina ayollar o‘zlarining giyohvandliklari haqida gapirish va davolanishga qiynaladilar, shuningdek, ayollar uchun maxsus shartlar mavjud bo‘lmagan tibbiy muassasalarda o‘zlarini qulay his qilmaydilar, shuningdek, tibbiyot xodimlari ham ularning ehtiyojlariga sezgir bo‘lishga o‘rgatilmagan”.

Ya‘ni jamiyatda ko‘pgina stereotiplarda erkak va ayolga bir xil munosabatda bo‘linmaganidek, giyohvandlik borasida ham shunday. Erkaklar bu muammo borasida bemalol shifokorga murojaat qilishi yoki birovdan malomat eshitmay davolana olishi mumkin bo‘lgan bir vaqtda, ayollarda bu imkoniyat unchalik keng emas, ular ayol bo‘la turib shu ishni qilgani uchun jamiyatning ta‘na-dashnomlariga qolishdan cho‘chidilar va narkotik domiga tushib ketaveradilar.

XULOSA

Gender stereotiplari — bu ma‘lum bir jinsga oid ijtimoiy rol va xulq-atvorlarni kutilgan tarzda taqdim etishdir. **Jansatta** gazetasida ba‘zida gender stereotiplari ko‘zga tashlanadi. Misol uchun, ayollar ko‘pincha oilaviy rolda tasvirlanadi, erkaklar esa kuchli va qarorlar qabul qilishda qatnashadigan shaxslar sifatida ko‘rsatiladi. Bunday stereotiplar gazetaning ijtimoiy ta‘siriga ta‘sir qilishi mumkin, chunki u o‘quvchilarni o‘ziga xos gender rollari va xulq-atvorlar haqida ma‘lumotlar bilan ta‘minlaydi. Jansatta gazetasidagi gender xususiyatlari Hindistondagi ijtimoiy va siyosiy kontekstda gender tengligi va stereotiplari masalalarini muhokama qilishda o‘zining ahamiyatini namoyon etadi. Gazetadagi maqolalar, ba‘zan gender tengligining ijtimoiy va siyosiy aspektlarini ilgari surishga intilsa-da, ayrim stereotiplarni ham ko‘rsatishi mumkin. Hindistondagi gender masalalarini yaxshiroq tushunish uchun media matnlarining tahlili, bu jarayondagi o‘zgarishlar va ijtimoiy oqimlarni aniqlash muhim rol o‘ynaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Alankrita Anand. India’s leading English dailies: A feminist study of the gendered practice of journalism. Tata Institute of Social Sciences, 2017.
2. Robert Shuter. Gender and New Media Use in India: A Critical Intercultural Analysis. Arizona State University, 2012.
3. Vadna Kanvar; Dr. Menakshi Singh. Emerging gender role representation in indian mediathematic analysis of four more shots please web series. G. D. Goenka University, School of Communication, Gurugram, Haryana, India, 2011.
4. <https://indianexpress.com/search/>